

FRANSUZ TILI FONETIKASINI QIYOSLAB O'RGANISHNING AHAMIYATI

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani Maktab va mактабгача та'lim
bo 'limiga qarashli 48 -umumiyl o'rta ta'lim maktabi Fransuz tili o'qituvchisi*

Yangibayeva Shirin

Annotatsiya Mazkur maqolada fransuz tili fonetikasining o'rganishda qiyosiy tahlilning ahmiyati hamda, fransuz tili fonetikasini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning samarasi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Fonetika, fransuz tili, texnologiya, qiyosiy tahlil, tilshunoslik.*

Fransuz tili — xindevropa tillari oilasining roman guruxiga mansub til; Fransiya, Fransiya Gvianasi, Gaiti, Monako, Benin, BurkinaFaso, Gabon, Gvineya, Kongo Demokratik Respublikasi, Kongo Respublikasi, Kot d'Ivuar, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi, Niger, Senegal, Togo, Chad davlatlarining rasmiy tili; Belgiya Kirolligi, Shveysariya Konfederatsiyasi, Kanada, Lyuksemburg, Andorra, Kamerun, Madagaskar, Burundi, Ruanda, Komor Orollari Federativ Islom Respublikasi, Jibuti, Vanuatu, Seyshel Orollari davlatlaridagi rasmiy tillardan biri. Italiya va AQShning belgili xududlarida ham tarqalgan. So'zlashuvchilarining umumiy soni 100 mln. kishidan, Fransyaning o'zida 57 mln. kishidan ortiqroq (o'tgan asrning 90-yillari). BMTning rasmiy va ishchi tillaridan biri.

Asosiy lahjalari: frans (hozirgi Fransuz tilining tarixiy negizi), shim. (Belgiyadagi normand, pikard, vallon va boshqalar), g'arbiy (anjuy, gallo va boshqalar), jan.g'arbiy (puatevin), markaziy, jan.sharkiy (burgund, franshkont), sharkiy (lotaringiya, shampans), frankprovansal.

Fransuz tili istilochilar tili (lotin tili) va Galliya tub aholisi tillarining o'zaro ta'siri jarayonida shakllangan. Fransuz tili tarixi quyidagi davrlarga bo'linadi:

gallroman (5—8-asrlar), eski fransuz (9—13-asrlar), o‘rta fransuz (14—15-asrlar), ilk yangi fransuz (16-asr), yangi fransuzklassik (17—18-asrlar) va hozirgi fransuz (19-asrdan). O‘rta asrlarda umumfransuz yozma tili maydonga keladi, 16-asrda milliy til (1539-yildan davlatning rasmiy tili) shakllanadi. 17-asrda adabiy til me’yori barqarorlashadi. 20-asrda adabiy va og‘zaki nutq o‘rtasida sezilarli farq paydo bo‘ladi. Dastlabki yozma yodgorliklari 8—9-asrlarga mansub. Fonetik xususiyatlari sifatida urg‘usiz, ayniqsa, so‘z oxiridagi unlilarning reduksiyasi, urg‘uning asosan so‘nggi bo‘g‘inga tushishi, urg‘u ta`sirida unlilarning o‘zgarishi, unlilar o‘rtasidagi va so‘z oxiridagi undoshlarning tushib qolishi va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Fransuz tili morfologiyasi uchun analitizm xarakterlidir (murakkab zamon, nisbat, qiyosiy darajalarning analistik shakllari). So‘zlarning morfologik jihatdan o‘zgarmaslikka moyilligi kuzatiladi. Bir kancha fammatik ma`nolar (jins, son, shaxs)ning ifodalanishi ko‘pincha sintaksis sohasiga ko‘chiriladi, yordamchi so‘zlar keng qo‘llanadi. Fe‘l sohasida 4-mayl, 3 nisbat va keng tarmokdi zamon shakllari mavjud. Leksikasida gallardan sakdanib qolgan so`zlardan tashqari franklar tilidan sakdanib qolgan muayyan qatlam ham mavjud. Fransuz tili rivojida adabiy lotin tili katta rol o‘ynagan; undan ko‘plab so‘zlar, so‘z yasalish qoliplari, sintaktik tuzilmalar o‘zlashgan. Yozushi bir qancha diakritik belgilar qo‘shilgan lotin alifbosi asosida shakllangan. Fransuz tili Belgiya, Shveysariya va Kanadada milliy variantlarga, Afrika mamlakatlarida esa, asosan, fonetik va lug‘aviy o‘ziga xosliklarga ega.

Fransuz tili asosan [Fransiya](#), [Belgiya](#), [Luksemburg](#) va [Shveytsariyada](#) kelib chiqqan, bugungi kunda esa dunyoning 54 mamlakatidagi 300 million odam uchun [ona tili](#) yoki ikkinchi til bo`lmish [roman tildir](#). Hozirgi rivojlangan axborot texnologiya asrida biror chet tilini (fransuz, ingliz, nemis) bilish hech kimga zarar keltirmasa kerak. Shunday ekan boshqa fanlarning o‘z o‘qitish metodlari bo’lganidek, chet tili o‘qitishning ham o‘ziga xos metodik uslublari, metodikasi mavjud. Biroq XVIII - asrgacha ayrim olimlar chet tilini o‘qitish metodikasini qiyosiy tilshunoslikning amaliy tadbiqidir deb qarasalar, boshqalar ularni pedagogika fani deb hisobladilar. Yuqorida

keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, yillar davomida xorijiy til o'qitish metodikasi qiyosiy tipoligiya va pedagogika fanlarining bir bo'g'ini sifatida hisoblangan va taqbiq etilgan.Bu fikrning o'ziga xos mantiqiy ifodasi bordek ko'rindi.Chunki ona tili bilan boshqa bir millatning ona tilini o'rganishda albatta ikki til bir-biriga qiyoslanadi, ularning o'ziga xos tomonlari farqlanadi.Masalan fransuz hamda o'zbek tili fonetikasini qiyoslaymiz:

- 1.Fransuz tilida 15ta, o'zbek tilida 6ta unli bor;
- 2.Fransuz tilida burun unli tovushlari mavjud, o'zbek tilida esa yo'q;
- 3.Fransuz tilida so'z oxiridagi undoshlar jarangsizlanmaydi, o'zbek tilida esa ular jarangsizlashadi: maktab (b - p); lemonade [limonad];
- 4.Fransuz tilida cho'ziq va qisqa unlilar bor, o'zbek tilida esa yo'q;
- 5.Ochiq unlilar fransuz tilida o'zbek tilidagidan ko'p; 6.Fransuz tilida 8ta, o'zbek tilida 2ta lablangan unli bor;

Fransuz tili fonetikasini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda hozirgi zamon axborot -texnologik vositalardan unumli foydalangan holda dars o'tish zamon talabidir.Binobarin, fransuz tili tovushlar sistemasining o'ziga xos murakkabliklari, uning o'zbek tili tovushlar sistemasidan ancha farq qilishi, fonetik mashg'ulotlar davomida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi va natijada o'quvchilarning fransuzcha tovushlarni me'yoriga yetkazib talaffuz qilish darajasiga erishish mumkin. Negaki aynan fransuz tilini o'rganayotgan talabalarda fransuzcha so'zlarni maromiga yetkazmasdan chala talaffuz qilish, so'z oxiridagi so'zlarni boshqa korrelyativ tovushlar bilan almashtirib yuborish, ba'zi talaffuzi qiyin bo'lган tovushlarni umuman o'xshata olmaslik, fransuzcha so'zlarning o'qilish qoidalarini chalkashtirib yuborish, fransuz tili uchun muhim sanalgan bog'lanish (la liaison) va ulanish (l'enchainement) hodisalariga amal qilmaslik kabi holatlar juda ko'p uchraydi.Bularning barchasi fransuz tili fonetikasini to'g'ri o'zlashtira olmaslik natijasidir.Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida dars jarayonini to'g'ri tashkil etish va darsda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, til bo'limlari ichida fonetika bo'limi nutqiy mahoratni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Chunki "Fonetika" tovushdagi muayyan bir so'zni o'zgartirish, tovushdan so'zlar hosil qilish, o'zakdosh qo'shimchadan qofiyadoh, ohangdosh so'zlar yasash, ularning imloviy ma'nolarini hamda ma'no guruhlari ustida ishslash o'quvchi so'z boyligini oshiradi. Hozirgi kunda fransuz tili fonetikasini o'zbek guruhi talabalariga o'rgatishdagi o'quvchining shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda u bilan ish olib boriladi va unga berilayotgan topshiriqni o'zlashtira olish qobiliyatiga qarab, sekinlik bilan amalga oshiriladi. Fransuz tili fonetikasini o'rganayotgan talaba avvalo, o'z ona tili fonetikasi yaxshi bilishi lozim. Chunki o'z ona tilini mukammal bilmay turib, xorijiy tillarni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch keladi. Ushbu muammolarni vaqtida hal qilishda talabaga ikki tilning farqli va o'xshash tomonlarini, qiyosiy tahlilini to'g'ri tushuntirib bera olish pedagog zimmasidagi muhim vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Andreychikova A.P , Ubaydullayev M, Yusupova N.A "Fransuz tili fonetikasi" O'zbekiston 1992-y
2. Bled E, Bled O. Orthographe, Grammaire, -Paris HACHETTE, 2009
3. www.google.uz
4. www.ziyonet.uz